



**TA'LIMDAGI ISLOHATLAR JARAYONIDA
YOSHLARNI SUN'IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISH KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

Rasulev Toshbotir Qarshievich,

*Xalqaro innovatsion universitet Ijtimoiy - gumanitar
fanlari kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*



**ISSUES OF DEVELOPING YOUNG PEOPLE'S
SKILLS IN USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE
IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL
REFORMS**

Rasulev Toshbotir Qarshievich,

*Associate Professor, Department of Social and
Humanitarian Sciences, international innovative
University, Candidate of Philosophical Sciences (PhD)*



E-mail:

amirqulovamaftuna8@gmail.com

Orcid:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18768048>

**ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ У МОЛОДЕЖИ
НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ПРОЦЕССЕ РЕФОРМ В СФЕРЕ
ОБРАЗОВАНИЯ**

Расулев Тошботир Каршиевич

*Доцент кафедры социально-гуманитарных наук
Международного инновационного университета,
кандидат философских наук*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Respublikamiz ta'lim tizimida, xususan umumta'lim maktablarida olib borilayotgan islohatlarni borishi, undagi samaradorlik, erishilayotgan yutuqlar, ayrim bo'shliqlar va ularni bartaraf etish, takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. O'quvchi yoshlarni Sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanishidagi muammolar, yangidan joriy qilingan "Kelajak soati" darslarining, oldindan o'tkazilib kelingan "Sinf soati" darslaridan afzalliklari, xususan, Yangi O'zbekiston ostonasida maktab yoshlarining tarbiyasi va Vatanparvarlik tuyg'ularini to'g'ri shakllantirish masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: taraqqiyot strategiyasi, islohatlar, raqamli texnologiyalar, Sun'iy intellekt, ma'naviyat-ma'rifat, Kelajak soati, Sinf soati.

Abstract. This article analyzes the course of reforms being implemented in the education system of our Republic, particularly in general secondary schools, their effectiveness, the achievements attained, existing shortcomings, and ways to eliminate and improve them. It examines the problems students face in the proper use of artificial intelligence, as well as the advantages of the newly introduced "Future Hour" lessons compared to the previously conducted "Class Hour" lessons. Special attention is given to issues of properly shaping the upbringing and patriotic values of school-aged youth in the context of the New Uzbekistan.

Keywords: development strategy, reforms, digital technologies, artificial intelligence, spirituality and enlightenment, Future Hour, Class Hour.

Аннотация. В данной статье анализируется ход реформ, реализуемых в системе образования нашей республики, в частности в общеобразовательных школах, их



эффективность, достигнутые результаты, а также отдельные недостатки и пути их устранения и совершенствования. Рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются учащиеся при правильном использовании искусственного интеллекта, а также преимущества недавно введённых занятий «Час будущего» по сравнению с ранее проводившимися уроками «Классный час». Особое внимание уделяется вопросам правильного формирования воспитания и патриотических ценностей у школьной молодёжи в контексте Нового Узбекистана.

***Ключевые слова:** стратегия, развития, реформы, цифровые технологии, искусственный интеллект, духовность и просвещение, «Час будущего», «Классный час».*

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Texnologiya asrida o‘quvchi yoshlarda maktab davridan boshlab raqamli texnologiyalar, IT va sun‘iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish hozirgi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimiz umumta‘lim maktablarida 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab 1-sinf dan boshlab “Informatika va axborat texnologiyalari” fanini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. 2026-2027 o‘quv yilidan boshlab “Sun‘iy intellekt” fanini o‘qitish rejalashtirilmoqda. O‘quvchi yoshlarni axborat texnologiyalari va Sun‘iy intellekt fanlarini maqsadli o‘qib o‘zlashtirishlari uchun ularda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish lozim. Bu esa, bugungi kunda, ma‘rifatli Yangi O‘zbekiston jamiyatini barpo etish uchun eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

MANBALAR TAHLILI VA METODLAR.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta‘lim sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan 2025-yilda Samarqand shahrida o‘tkazilgan YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi ochilish marosimida nutq so‘zlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Raqamli texnologiyalar va ta‘lim sohasidagi islohatlar” koferensiyaning muhim mavzularidan biri ekanini e‘tirof etdi. Unga ko‘ra “SUN‘IY INTELLEKTNI” ta‘lim tizimiga joriy etish orqali gumanizm va texnologiya uyg‘unligini ta‘minlash juda zarur masala hisoblanadi.

Bu yo‘nalishda “AI-School” tashabbusi hamda YUNESKO huzurida inklyuziv ta‘lim platformasini yaratish taklifi ilgari surildi. “Jismoniy va ijtimoiy xususiyatlaridan qat‘iy nazar, har bir bolaga ta‘lim olishi uchun teng imkoniyatlarni yaratib berish juda muhimdir”, - dedi Shavkat Mirziyoyev konferensiya ochilishidagi o‘z nutqida. Bu tashabbuslar ta‘lim sohasida barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish va yangi intellektual muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta‘lim sohasi oldiga qo‘yilgan bunday muhim islohotlarni amalga oshishi uchun birinchi navbatda o‘quvchi yoshlarni dunyo qarashini to‘g‘ri shakllantirish zarurdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 25-avgustdagi “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida



ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 308-son buyrug'i qabul qilindi.

Ushbu 308-son buyruqqa asosan o'quv yili davomida, 34 hafta har dushanba kuni "Kelajak soati" darslarini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ushbu 308-son buyrug'iga binoan quyidagilar ishlab chiqildi va amalga oshirish yo'lga qo'yildi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2025-2026-o'quv yilida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning namunaviy ish rejasi;
2. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida 2025-2026-o'quv yilida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ish rejasi;
3. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari psixologining 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan namunaviy ish rejasi;
4. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun "Kelajak soati" darslarining namunaviy mavzular ro'yxati.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Ilmiy kuzatishlarimiz markazida turgan o'quvchi yoshlarni Sun'iy intellektdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish uchun bir qarashda "Kelajak soati" darslari uncha ahamiyat beriladigan masala emasdek ko'rinishi mumkin. Lekin "Kelajak soati" darslari o'quvchi yoshlarning dunyo qarashini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, "2022-2026-yillarga mo'ljallab qabul qilingan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da bu masala bosh masalalardan biri sifatida etirof etilgan.

Strategiyaning 71-moddasida "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" belgilangan. Bu maqsadning bosh g'oyasi etib "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ma'rifatli jamiyat – kelajak yoshlar ishtiroki bilan amalga oshadi albatta. Shunday ekan yana bir shiorni unutmaslik kerak. Bu shior – "Yoshlar-Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shioridir.

"Yoshlar-Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shiori ostida oldimizda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim sohasini tubdan isloh qilish zarur. Shu sababli ta'lim tizimini isloh qilish bevosita ma'rifatli jamiyat barpo etis masalasiga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu yuksak maqsad va g'oyalarga faqatgina samarali ta'lim va tarbiya orqaligina erishish mumkin.

Bunday islohatlar jaroyoni markazida eng avvalo ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. Jamiyat a'zolarining, ayniqsa yoshlarning ongi va tafakkurini hayot falsafasi va



dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi va zamonaviy texnologiyalarga, xususan, sun'iy intellektga ehtiyoj paydo bo'ladi. Ana shu jarayonda, "Kelajak soati" darslarining ahamiyati beqiyosdir.

"Kelajak soati" darslarini ahamiyati juda muhimdir der ekanmiz, o'z-o'zidan qanday degan savol tug'uladi. Nima, bir necha yillardan beri o'tkazilib kelinayotgan Sinf soati darslari bu vazifani bajara olmas edimi? Sinf soati darslari uchun ham o'quv yili davomida 34 haftada 34 ta dars mavzulari namunasi vazirlik tomonidan ishlab chiqarilgan edi. Bu masalada Xalq ta'limi vazirligining 2020-yildagi 180-son, 2023-yildagi 190-son buyruqlari qabul qilingan edi. Lekin u darslarda o'quvchilarga faqat dars mashg'ulotlari mavzusi mazmun-mohiyati tushuntirilar edi. Dars mavzusiga oid lavhalar, namunalar ko'rsatilmas, namoyish etilmas edi. Natijada bu darslarning samarasi ancha kam bo'lgan.

Ta'lim jarayoni yanada samarali bo'lishi uchun eshitishdan ko'ra ko'rish va bevosita ishtirok etish ko'proq samara beradi. Shu nuqtai nazardan "Kelajak soati" darslari samarali hisoblanadi. Kelajak soati darslarining barcha mavzulari uchun vazirlik tomonidan tayyorlangan, hayot bilan bog'liq video lavhalarni namoyish etish, ko'rsatilgan lavhalar yuzasidan o'quvchi yoshlar faol ishtirok etishi va darslar yuqori saviyada o'tkazilganligi to'g'risida muntazam ravishda hisobot berib borilishi "Kelajak soati" darslari samaradorligini oshiradi. Bu esa o'z-o'zidan o'quvchi yoshlarda yuksak axloqiy fazilatni shakllanishi natijasida Sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida ma'rifatli jamiyatga munosib bo'lishlarini ta'minlaydi.

XULOSALAR.

Kelajak soati darslarini o'tkazishga ma'sul bo'lgan sinf rahbarlari bilan Kelajak soati darslari samaradorligini oshirish maqsadida maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, maktab amaliyotchi psixologi va viloyat pedagoglar ma'muriyat markazi metodistlar guruhi faollari tomonidan yanada ko'proq amaliy ishlar olib borilishni talab qiladi. Bugun maktab o'qituvchilariga, hozirda sun'iy intellekt texnologiyalari jadal taraqqiy etib, dunyo iqtisodiyoti, sanoat, ta'lim, tibbiyot, axborot texnologiyalari va boshqa ko'plab sohalarning ajralmas qismiga aylanayotganligini, sun'iy intellekt asoslarini nafaqat chet tillarida, balki o'zbek tilida, qulay va tushunarli shaklda o'rganish imkoniyati mavjud ekanini anglatish lozimdir.

References:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2016). Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Tashkent: O'zbekiston. 59 p.
2. Alonso, M. The Translation of Idioms in Literary Texts: A Study of Spanish-English Translations. *Meta: Journal des traducteurs*, 55(3), 451-466. 2010.



3. Newmark, P. A Textbook of Translation. Prentice Hall. 2010
4. Gottlieb, H. Subtitling: A New University Discipline. In: Perspectives: Studies in Translatology, 2(1), 47-60. 1994
5. Gile, Daniel - Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training 2009
6. Cohen, A. D. Idioms and Their Translation. Translation Studies, 4(1), 1-18. 2011.
7. Musurmanova Sh., New foundations of intercultural communication TSTU: International Scientific and Practical Conference: "Modern Education and Innovative Approaches to Teaching Foreign Languages" May 2-3, 2025
8. Tashkent.
9. Musurmanova Sh. Ingliz tilida soʻz turkumlarining ahamiyati XIU: Maʼrifatli jamiyat: mazmun va mohiyat, ijtimoiy-falsafiy aspekti mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. 27.10.2025 Qarshi.